

KONSTITUTSIYA-FAROVON HAYOTIMIZ POYDEVORI

Axmedova Zarina

O'zDJTU Media va Kommunikatsiya

Fakulteti Xalqaro jurnalistka yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Konstitutsiya xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurning yuksak na'munasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. XXI asr bilan hamnafas odimlash uchun birgina malaka va sinovdan o'tgan muvaffaqiyat strategiyalari ila boyitilgan mehnat uslublarining o'zi yetarli emas. Yangi asr malaka (kompetentlik)ning yangi darajasini talab qiladi. Biz oltin davr ostonasida turibmiz.*

Kalit so'zlar: *konstitutsiya, bozor munosabatlari, muvaffaqiyat, milliy mafkura, erkinlik.*

Biz ko'pincha odamlardan muvaffaqiyat – bu ko'p pulga ega bo'lish ekani haqida eshitganmiz. Men qat'iy “Yo'q” deb javob beraman. Siz nimaga deb so'rayapsizmi? Keling, antik davrning mashhur faylasuflari; Suqrot, Aflotun va Arastu muvaffaqiyat deganda aynan nimani tushinishganlarini aniqlashga harakat qilaylik. Arastu insonlarni individumlar sifatida qabul qilgan va inson hayotining maqsadi haqida ko'p o'ylagan. Ushbu maqsad baxtga erishish degan xulosaga kelgan. Sizning ham bizning ham umumiy maqsadimiz bor. Biz baxtli bo'lishni xohlaymiz. Shunday qilib, Arastu bu baxtga intilish manbalarini izlashni boshladi. Ikki ming yildan ortiq vaqtdan buyon biz uning asosiy kashfiyotlaridan foydalanib kelamiz. Huddi yevropaliklar bizning ota-bobolarimiz qoldirgan ilm-fan sohasidagi yutuqlarni olib ketib, o'zi kashf qilib qo'ygandek. Barcha baxt yo'llariga adolat bilan ish tutilmagina olib boradi. Men bu mavzu yuzasidan yozar ekanman, mavzuni ochib berishda albatta birinchi bo'lib tarixga quloq tutaman. Sababi, hozirgi davrga yetguncha bo'lgan voqealar haqida millionlab savollar to'planadi.

“Rossiya” so'zi “h yer” degan ma'noni anglatadi deb hisoblagan xitoyliklar yanada ochiqroq nafratlanishdi. Xitoy kommunistik inqilobdan keyingi o'n yil ichida ular Moskvaning mafkuraviy hukmronligiga qat'iy qarshilik ko'rsatishdi va hatto o'zlarining an'anaviy nafratlarini ochiq namoyish qila boshladilar. Va nihoyat, SSSRning o'zida uning rus bo'lmagan aholisining 50 foizi ham Moskva hukmronligini rad etdi. Rus bo'lmagan aholisining asta-sekin siyosiy uyg'onishi ukrainlar, gruzinlar, armanlar va ozarbayjonlar Sovet hokimiyatiga xalq sifatida o'zlaridan madaniy jihatdan ustun bo'lgan begona davlat shakli sifatida qarashni

anglatardi. Markaziy Osiyoda intilishlar zaifroq bo'lishi kuzatilishi mumkin edi, lekin u yerda xalqlarning kayfiyati asta-sekin o'sib borayotgan islom olamiga mansublik hissi bilan kuchayib bordi. Bu esa hamma joyda dekolonizatsiya haqidagi

ma'lumotlarda namoyon bo'ldi. O'zimizning Konstitutsiyamizga erishguncha qanchadan-qancha odamlar qoni to'kildi. Qomusimizning har bir harfi o'sha qahromonlar qoni bilan bitilgan desam mubolag'a bo'lmaydi. Bugun nafaqat jahon urushlari, balki uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan mahalliy talon-tarajlikda ham adoqsiz fojia, o'nnglanmas adolatsizlik tarzida yondashish qaror topmoqda. Bugun urushning har bir qatnashchisi betakror olam ekanini, o'zigagina daxldor dardi, baxtu baxtsizligi borligini, uning azoblari, iztiroblari, ruhiy talbasalari oldida har qanday muqaddas g'oya ham hech qanday qimmatga ega emasligi aks ettirila boshlandi. Ozodlikka erishildi. Mana endi tarixdan keyin bo'lgan o'zgarishlar haqida yoza boshlayman. Birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning tashabbuslari bilan mustaqillikka erishdik va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning o'n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Bayrog'i qabul qilingan. Bu bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi. Hokimiyatning xalq saylagan vakillik organlari-parlament, xalq deputatlari kengashlarining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va ahamiyati tubdan o'zgardi. Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning vakolatlari bosqichma-bosqich kengaytirildi, parlament va jamoatchilik nazorati

institutlari mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekani, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsning aybi sudda aniq bo'lmaguncha u aybdor hisoblanmasligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarni amalda ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rildi. Shu maqsadda biz sud tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor bermoqdamiz. Jumladan, yagona sud amaliyotini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi birlashtirildi. Darhaqiqat, Konstitutsiya jamiyat uchun nihoyatda muhim hujjat ekanligi, uning har tomonlama mukammal qabul qilinishi, birinchi galda, xalqning manfaatiga xizmat qilsa, ikkinchidan, inson va davlat o'rtasidagi o'zaro mas'ullik munosabatlarini atroflicha tartibga soladi. Konstitutsiya orqali davlat o'z o'rne va nufuzini dunyo hamjamiyatida namoyon qiladi. "Inson qadri uchun " tamoyili asosida xalqimiz farovonligini yanada oshirish, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish , inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda kuchli faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi.

Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etilib, uning tarkibi va vazifalari belgilandi. Mazkur konstitutsiyaviy komissiya tarkibiga barcha hududlardan deputatlar, senatorlar, jamiyatning turli qatlamlari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, yetuk huquqshunos va siyosatshunoslar hamda boshqa ekspertlar kiritildi. Bundan ko'rinib turibdiki barcha teng huquqligi qonun bo'yicha ham amalga oshirilib borilyabdi.

-2022-2025-yillarda turizm sohasidagi hamkorlik dasturi;

-Fan, texnika va innovatsiya sohalarida o'zaro anglashuv to'g'risida memorandum;

-Bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarining harakati to'g'risida elektron bojxona axborotini almashish to'g'risida memorandum ;

Shu va shu kabi ikki tomonlama imzolangan bitim va memorandumlar Samarqand shahri mezbonlik qilgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Eron Prezidenti Ibroxim Raisi Qo'shma bayonot imzoladi. Bu faqat bitta davlat bilan bir nechta bitim edi. U yerda O'zbekiston va 14 ta davlat bor edi. Mana o'zgarish, rivojlanish, yuksalish. Konstitusiyamiz bor ekan xalqaro bitimlar bardavom bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim axborotni moneyliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega.

4-modda. Axborot erkinligi

Bu moddani bejizga keltirib o'tmadim. Sababi, xalq va davlat o'rtasida muhim ro'l o'ynaydigan shaxslar-jurnalistlar uchun ham bir qator erkinlik, ochiq eshiklar makonini ocha boshladi. Moddada keltirib o'tilganidek axborot olish va tarqatish huquqiga ega. Bu bilan avvalgi tahdidlar qonun bilan cheklandi. Barchamiz juda yaxshi bilamiz jurnalist nomi ostida yursa ham, aslida kimningdir qo'g'irchog'i bo'lgan. Bugungi kunda aslo qo'rqishga hojat qolmadi deyarli. Jurnalistlar o'zining ishini qilyabdi. Bo'lishi mumkin ora –sirada kichik senzura chalar uchrab turishi. Ammo qonun bunga yechim topadi. Bu achchiq haqiqat!

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasiga binoan, senzura yo'l qo'yilmaydi. Axborot olish va tarqatish kafolatlariga oid "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida "(2002-yil 12-dekabr), "Axborotlashtirish to'g'risida ,(2003-yil 11-dekabr), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida ,(1997-yil 25- dekabr) gi qonunlar qabul qilingan. Jurnalistlarning quroli qonunlarni yaxshi bilishi va Konstitutsiyasini sevishidir. Qisqa qilib aytganda Konstitutsiya chindan ham himoyachi. Konstitutsiya – farovon hayotimiz poydevori. Davlat organlarida xizmat bo'yicha o'sish tartibida davlat xizmati lavozimlarini egallash maqsadida tanlov asosida rahbar lavozimlarini egallash uchun kadrlar zaxirasi shakllantirilishi

muhim ahamiyatga egadir. Shunday qilib, strategik dasturda davlat xizmati to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish davlat xizmati faoliyatini to'g'ri va samarali faoliyati yuritishida katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tiladi. „Davlat organlari va masnsabdor shaxslar faoliyatiga baho berishda qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday himoya qilinayotgani, ularga davlat xizmatlari ko'rsatishning sifati va ochiqligi biz uchun eng asosiy mezon bo'lishi shart. Shu borada yana bir fikrni yana takrorlab aytmoqchiman: xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak“. Bugungi odam – murakkab. Bugungi o'quvchi – o'ychil. Bugungi yozuvchi – sinchkov. Men

maqola yuzasidan xulosamni yozar ekanman bir narsani ta'kidlab o'taman. Bu ijodimni o'rin olish uchun emas, balki men yozgan maqolalar orqali kimdir, o'ziga yangilik bo'lgan bilimni olishini istayman. Balki mavzuni t'liq yoritib

berolmagandirman ammo buni yozguncha ko'p izlandim, o'zimga yangi ma'lumotlar ba'zasini to'pladim. Har safar yozar ekanman, birinchi gal tarixga nazar tashlayman. Go'yo oson erishilgandek tuyilayotgan bugungi mustaqilligimiz uchun

bir zamonlar jafokash – u jabrdiyda birodarlarimiz badnom etilib, ota yurtidan badarg'a qilingan edilar. Ha, dorulomon kunlar kelgani chin bo'lsin va bugungi istiqlol sharofati tufayli o'qish baxtiga muyassar bo'layotganimizni unutmaylik!

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Buyuk shaxmat taxtasi\ Ebigneb Bezinskiy, ingliz tilidan ,“Sharqshunos tahlilchilar“ jamoasi

tarjimasi. Toshkent: ,“ TRUST AND SUPPORT“ MCHJ, ,“Tirilish“ nashriyoti, 2022.

2. Istiqlol Jallodlari / Tarixiy- badiiy asar/ Mustafu Cho'qay o'g'li. – Toshkent. ,“TRUST AND SUPPORT“, 2022.

3.Qon hidi [Matn]: roman / Abdurashid Nurmurodov – Toshkent, ,“Zabarjad Media“ , 2020.

4.Lider shaxsiyati / Brayan Treysi, Frank M. Sheelen, ingliz tilidan Nilufar Yo'lchiyeva tarjimasi.

Toshkent: ,“TRUST AND SUPPORT“ MCHJ ,“Tirilish“ nashriyoti. 2022.